Prenatal diagnostika o'tqazish maqsadida homilador ayollar rejali profilaktik tekshiruvi 3 etapda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich homiladorlikning 10-14 haftasida , ikkinchi bosqich homiladorlik 20-24 haftasi va uchunchi homiladorlik 30-34 haftalari o'tqaziladi. [3,5,6]

Homiladorlik davri asoratli kechishi oldini olish asosan homiladorlikgacha bo'lgan davrdan boshlash maqsadga muvofiq. Kompleksli sog'lomlashtirish muolajalari ayollarda surunkali virusli infeksiya ta'sirda organizm holati va korreksiyalash, erta tashxislash, davolash ishlarini olib borish o'z ichiga oladi. Surunkali o'choqli infeksiyalar sanatsiya qilish , immun tizim faoliyat oshirish, yuqumli kasalliklar keltiruvchi viruslarga qarshi immunprofilaktika qilish, kamqonlik oldini olish va boshqa profilaktik chora tadbirlar amalga oshiriladi. Homilador ayollar antenatal parvarishi oilaviy poliklinikada ginekolog, terapevt,

endokrinolog, oftalmolog va boshqa tor mutaxassislar tomonidan profilaktik ko'ruvlardan o'tadi

Ayol homilador bo'lganidan keyin dastlabki homiladorlik 12 haftagacha yashash hududi biriktirilgan oilaviy poliklinikada antenatal parvarish ta'minlash uchun homilador ayolga individual karta ochiladi va bunda homiladorlik individual tekshiruv rejasi, on ava homilani zamonaviy tekshiruv usullaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Yuqori xavf guruhi homilador ayollar olib borish qat'iy tekshiruv va kuzatuv ostida bajariladi.

Hozirgi vaqtda homilador ayollarda qin disbioz davolash ikki bosqichda amalga oshirilmoqda [1,3,6,11,16,24]:

- I. bosqich – sanitarizatsiya-umumiy va mahalliy antibiotik terapiyasini o'z ichiga oladi.
 - Og'iz orqali: klion 7 kun davomida kuniga 2 marta 500 mg, metronidazol – 7 kun davomida kuniga 2 marta 500 mg.
 - Mahalliy davolash: klindasin (2% klindamitsin fosfat) bir marta 7 kun davomida (intravaginal) 5,0 g dan, metronidazol-gel (0,75 %) kuniga bir marta 7 kun davomida intravaginal, klion D (vaginal tabletkalar) – 7 kun davomida kuniga 2 marta 0,5 g.
- II. Bosqich – Qin normal mikroflorasi tiklash uchun probiyotiklar va prebiyotiklar qo'llash o'z ichiga oladi.
 - Probiyotiklarni qo'llash. Vagilak kuniga 1 kapsuladan qo'llaniladi. Vaginal floraning sifatini yaxshilash ikki hafta ichida kutilishi kerak.
 - Mahalliy davolash: biologik mahsulotlarni mahalliy qo'llash orqali vaginal biotsenozni tiklashni ta'minlaydi (eubiotiklar): laktobakterin, asilakt, bifidumbakterin, bifidin. Laktozinal terapevtik maqsadlarda 7 kun davomida kuniga 2 marta 1 vaginal shamdan foydalaniladi. Profilaktika maqsadida-kuniga bir marta 1 shamdan kechasi-7-14 kun.

Homilador ayollar qin normal mikroflorasi tiklashda quyudagilar [1-4]:

- 1) Urogenital tizim organlarida, boshqa tizimlarda va ular bilan bog'liq asoratlarda yallig'lanish o'choqlarini bartaraf qilish;
- 2) Disbiyotik jarayonni uning xilma-xilligini va yallig'lanish o'choqlarining yuzaga keltiruvchi asosiy sabablarini oldini olish ;
- 3) Vaginal disbiozning rivojlanishiga va yallig'lanish shakllanishiga olib kelgan patogen qo'zg'atuvchilar ko'payishiga to'sqinlik qilish:

Qin disbiozi davolash chora tadbirlariga antibiotiklar, antiseptiklar, probiotiklar, eubiotiklar, antigistaminlar, immunkorreksiya usullarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy kombinirlangan mahalliy (intravaginal) qo'llash uchun tayinlanadigan dori – vositalarga quyudagilar kiradi [3,8,25]:

- Metostil tarkibi metronidazol 200mg + klotrimazol 160 mg + xlorgeksidin 8mg kiradi.
- Klion D tarkibi metronidazol + mikonazol 100mg bo'ladi.
- Ginalgin tarkibi metronidazol 250 mg + xlorxinaldol 100 mg + limon kislota 20mg saqlaydi.
- Polijinaks tarkibi neomitsin + polimiksin 35000 ME + nistatin 100000 ED bor.
- Siteal tarkibi xlorgeksidin + geksamidin + xlorokrezol kiradi.
- Neo penotran forte tarkibi metronidazol 250 mg + mikonazol 200mg bo'ladi.
- Makmiror kompleks tarkibi nifuratel 500mg + nistatin 100000 ED saqlaydi.
- Geksikon tarkibida xlorgeksidin tashkil qiladi.
- Klometril tarkibi metronidazol + natamitsin + xlorfenikol mavjud.

Davolash muolajalar shuningdek bachadon qisqarish faoliyati va tonusini normallashtirish, antioksidant himoyani kuchaytirish, moddalar almashinuvi jarayon optimallashtirish, bachadon- yo'ldosh – homila tizim qon aylanish yaxshilashga qaratilishi kerak. Bachadon tonusi tiklash uchun spazmolitiklar, tokolitiklar tavsiya qilinadi. Ona- plasenta- homila tizim qon aylanish yaxshilash uchun antikoagulyantlar va antiagregantlar qo'llaniladi

**Zamonaviy kombinirlangan mahalliy (intravaginal) qo'llash uchun
 tayinlanadigan dori – vositalarning ta'sir mexanizmlari [14,23,24] :**

Jadval 3

Preparat nomi	Antimikrob aktivlik darajasi		
	Candida Albicans	Trichomanas vaginalis	Gardnerella Vaginalis
Metostil	++	++	+++
Neo penotran forte	++	++	++
Klion D	++	+	+
Terjinan	+	+	++
Polijinaks	++	-	-
Kandibene	+	-	-

Homilador ayollarda qin disbiyozning davolash profilaktik jarayonlarni muhim va yakuniy bosqichi vaginal mikroflorani tiklashdir. Buning uchun ko'pincha probiyotiklar va prebiyotiklarning kombinatsiyasi qo'llaniladi [28].

Probiyotikalar-bu tirik mikroorganizmlar va mikrobial kelib chiqadigan moddalar, uning normal mikroflorasi (probinorm, vagilak, ekofemin, enterol, Linex va boshqalar) funksiyasini barqarorlashtirish va optimallashtirish orqali organizmning fiziologik, biokimyoviy va immunitet reaksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [16,21]

Prebiyotikalar-bu normal mikrofloraning o'sishini yoki metabolik faolligini tanlab rag'batlantirish orqali organizmga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan mikroblarga qarshi bo'lmagan dorilar. Zamonaviy preparatlardan bularga fruktozooligosakkaridlar, inulin, galakto-oligosakkaridlar, laktuloza, laktitol kiradi. Shuningdek sinbiotiklar - bu probiyotiklar va prebiyotiklarning oqilona kombinatsiyasi natijasida olingan dorilar (biovestin-lakto, Solgar maltidofilus, bifidobak) [16,21,28] .

Homilador ayollarda qin mikrobiotsenozning buzulishlaridan korreksiya qilish va terapiyasi bu murakkab vazifa sanaladi, ko'plab faktorlar oqibatida rivojlanishi hisobga olgan holda, davolash profilaktik chora va tadbirlar patogenetik va kompleksli terapiya xarakterli bo'lishi kerak

Homilador ayolarda "Bakterial vaginoz", "vulvovaginal kandidoz", shuningdek, aralash shartli patogen mikroflora bilan "vaginit" ni o'z vaqtida tashxislash, keyin kompleks davolash va normal qin mikroflorasi qayta tiklashni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, vaginaning endogen mikroflorasi – bu makroorganizm bilan doimiy muvozanatda bo'lgan, endogen va ekzogen omillar ta'sirida o'zgarishlarga duch keladigan dinamik biosistema.

II-BOB.

TEKSHIRUV MATERIALLARI VA USULLARI.

2.1. Tekshiruv materiallari.

Qo'yilgan masalani hal qilish uchun 2020-2022 yillar oralig'ida Andijon shahar II- tug'ruq kompleksi I- Akusherlik va homiladorlik kasalliklari bo'limida homilador ayollarda vaginal mikroflorasi buzulishlar kuzatilishi tufayli qin disbiozi rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan 18 yoshdan 40 yoshgacha homilador ayollar 40ta tug'ruq tarixini retrospektiv tahlil amalga oshirildi.

Retrospektiv tahlilda homilador ayollar qin normal mikroflorasi buzulishlarga olib keluvchi homila ichki infeksiyalari, surunkali virusli infeksiyon kasalliklar, TORCH- infeksiyasi, homiladorlik davri kechishi og'irlashuvi, homila tushish xavfi, homila rivojlanishi nuqsonlari kabi patologik asoratlar uchrash xususiyatlari va homiladorlik davri kechish yakuniy natijalar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida qin disbiozi rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan homilador ayollarning somatik, akusher-ginekologik anamnezi baholandi, shuningdek homilador ayolning yoshi, menarxe, reproduktiv tizim holati va ayolda mavjud bo'lgan ekstragenital kasalliklari xavf darajasi o'rganilib chiqildi. Tekshiruv vaqtida homilador ayollar mavjud bo'lgan surunkali virusli infeksiyalar va ekstragenital kasalliklar tor doiradagi tibbiy mutahassislar tomonidan aniqlangan, bulardan endokrinolog, kardiolog, infeksiyonist, urolog, terapevt tibbiy profilaktik ko'ruvlari davomida tashxis qo'yilgan. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra homilador ayollar qin disbiozi yuzaga chiqish xavfi yuqori sanalgan homilador ayollar turli surunkali virusli infeksiyalar, yuqori nafas yo'llari infeksiyalari, O'RVI, TORCH- infeksiyasi, genital va siydik yo'llari infeksiyon kasalliklarni kechirgan sababli reproduktiv tizim va boshqa a'zo to'qimalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish olib keluvchi sabab bo'lishi mumkin.

Tekshiruv davrida qin disbiozi kuzatilish xavfi yuqori sanalgan homilador ayollar olingan tadqiqot natijalar obyektiv va subyektiv o'rganish maqsadida retrospektiv tahlilda homilador ayollar 40ta kasallik tarixi o'rganildi.

Retrospektiv tahlilda homilador ayollar birinchi tug'malar soni 11ta (27.5%) qayta tug'malar soni 29ta (72.5%) tashkil etardi. Ulardan 20 yoshgacha bo'lgan homilador ayollar soni 2ta (5%), 21-25 yoshgacha 11ta (27.5%), 26-30 yoshgacha 14ta (35%), 31-35 yoshgacha 11ta (27.5%) va 35 yoshdan katta bo'lgan homilador ayollar 2ta (5%) tashkil etardi. Tadqiqot davomida homilador ayollar virusli va bakterial tabiatli kasalliklar natijasida fetoplatsentar tizim gemodinamik buzulishlar xususiyatlar natijalari yakuni kuzatildi.

Tekshiruvga qo'yilgan maqsadga ko'ra aniq natijalar olish uchun retrospektiv tahlil xulosalariga tayangan holda qo'shimcha 20ta qin disbiozi tufayli vaginal normal mikrofloraning buzulishlari yuqori xavf guruh homilador ayollar prospektiv tahlil qilish uchun ajratib olindi.

Prospektiv tahlilda tekshirilayotgan ayollar yoshi bo'yicha strukturasi o'rganilganda quyudagi natijaga ega bo'ldik. Homilador ayollar yoshi 18 yoshdan va 35 yoshdan yuqori bo'lib, o'rtacha 27 yoshdan bo'lib, 18 - 24 yoshgacha 4ta (20%) , 25-30yoshgacha 9ta (45%), 31-35yoshgacha 4ta (20%), 35 yoshdan katta bo'lgan ayollar 3ta (15%) tashkil qilgan.

Qin disbiozi yuzaga kelish xavfi yuqori homilador ayollar guruhi homiladorlikning I – trimestirida o'tkir respirator virusli infeksiyalar, erta toksikozlar, erta homila tushish xavfi kuzatilgan. Homiladorlikning II- trimestirida siydik yo'llar infeksiyasi zo'rayishi, homila rivojlanish orqada qolishi aniqlangan. Shunindek homiladorlik III- trimestirida homila gipoksiyasi, homila muddatdan oldin tug'ulish, ko'p suvlilik , kam suvlilik uchragan

**Qin disbiozi yuzaga kelish xavfi yuqori homilador ayollar guruhi olib borilgan
tibbiy diagnostik tekshiruvlar:**

30 nafar homilador ayollar guruhi		
10 nafar sog'lom homilador ayollar guruhi tashkil etadi.	10 nafar qin disbiozi bilan kasallangan lekin davo muolajalar olmagan homilador ayollar guruhi tashkil etadi.	10 nafar qin disbiozi bilan kasallangan, antibacterial va probiotik davo muolajalar olgan homilador ayollar guruhi tashkil etadi.
Homiladorlik davrida o'tqazilgan tibbiy tekshiruvlar:		
Umumiy klinik tekshiruvlar Laborator tekshiruvlar	Bakteriologik tekshiruvlar Bakterioskopik tekshiruvlar	UTT Dopplerometriya

2.2. Tekshiruv usullari.

Qin mikrobiotsenozning buzulishlaridan xavfi yuqori o'rganilyotgan homilador ayollar umumiy ko'ruv, tor tibbiy mutaxassislar tomonidan profilaktik ko'ruv, klinik – laborator tekshiruvlar, funksional instrumental diagnostik metodlar va boshqa tekshiruv usullari rejalashtirildi. Birinchi etapda homilador ayollar anamnez va umumiy klinik tekshiruv natijalari o'rganiladi. Ikkinchidan kompleksli ultratovush va klinik laborator tekshiruv usullari orqali qin normal mikroflorasi buzulishlarining og'irlik darajasi aniqlanadi

I. Umumiy klinik tekshiruv usullari:

1. Akusherlik anamnez: menarxe, homiladorlik soni, tug'ruq soni, avvalgi homiladorlik va tug'ruq kechishi, surunkali virusli infeksiyon kasalliklar va ekstragenital kasalliklar aniqlash.
2. Ob'ektiv ko'ruv: umumiy holati, tana tuzulishi, antropometriya, qorin aylanasi va bachadon tubi o'lchash, qon bosim , puls, nafas soni, tana harorati o'lchash, bo'y va vazn indeks hisoblash.

II. Klinik laborator tekshiruvlar:

1. Umumiy qon tahlili.
2. Qon bioximiyasi (umumiy oqsil, mochevina, bilirubin, ALT, ACT, kreatinin, koagulogramma, qon ivish vaqti)
3. Qon guruhi va rezus faktor.
4. Umumiy siydik tahlili.
5. 3 (.) surtma tahlili.
6. IFA VA IIIQP tekshiruv usullari.

III. Funksional instrumental tekshiruvlar:

1. EKG tahlili.
2. Ultratovush tekshiruvi.
3. Dopplerometriya

Qin disbiozi rivojlanish xavfi yuqori homilador ayollar tekshiruv usullari:

2.1-Jadval

Tekshiruv formasi:	Tekshiruv usuli:	Tekshiruv material:	Tekshiruv maqsad:
Gematologik	• Umumiy qon • Qon bioximiyasi	✓ Qon	Periferik qon ko'rsatkichi aniqlash
Immunologik	• IFA tahlil	✓ Qon	Antigenga qarshi antitanacha ajratilish aniqlash
Virusologik	• IIIQP	✓ Genital ajralmalari	Virus tabiati o'rganish
Bakteriologik	• Romanovskiy Gimza usul	✓ 3 (.) surtma	Patogen flora aniqlash

Homila ichki infeksiyasi bachadon plasenta homila tizim gemodinamik buzulishlar prenatal diagnostika qilishdagi tekshiruv usullar :

2.2-Jadval

Klinik laborator tekshiruv usullar:	Instrumental tekshiruv usullar:
✓ Akusher ginekolog ✓ Bakteriologik ✓ Serologik ✓ Bioximik ✓ Mediko genetic	✓ Ultratovush tekshiruv ✓ Dopplerometriya

Homila ichki infeksiyalanish xavfi yuqori homilador ayollar kompleksli skrining tekshiruv usullari:

2.3-Jadval

Tekshiruv soni	Tekshiruv muddati	Tekshiruv usullari	Tekshiruv Maqsad
I skrining	Homiladorlik 10-14 haftasi	• Ultratovush tekshiruv	✓ Homila shakllanish holati ✓ Xromosoma anomaliyalar
II skrining	Homiladorlik 16-20 haftasi	• Ultratovush tekshiruv • Qon bioximiya skrining • Dopplerografiya	✓ Homila jinsi ✓ Homila hajmi ✓ Yo'ldosh holati ✓ Amniotik suyuqlik miqdori
I skrining	Homiladorlik 28-32 haftasi	• Ultratovush tekshiruv	✓ Homila va yo'ldosh joylashuvi ✓ Tahminiy tug'ilish sanasi

Homiladorlik davrida rejali tashriflari 12haftagacha, 6, 24, 30, 34, 36, 38, 40 haftalarda tashkil etadi. Ginekolog ko'ruvi 12 haftagacha, 24, 38 va 40 haftalarga belgilanadi. Boshqa mutaxassislar tekshiruvi homiladorlik 12 haftagacha bajariladi.

**Homilador ayollarda qin disbiozi tufayli vaginal normal mikrobiotsenozning
buzulishlar prenatal diagnostika qilishdagi tekshiruv usullar :**

2.4-Jadval

Klinik ko'ruv	Akusher ko'ruvi	Laborator	Skrining
-Bo'y va vazn aniqlash -Tana indeksi hisoblash -Qon bosim, puls o'lchash	-Homila yurak urushi eshitish -Homila qismlar paypaslash - Homila oldingi qism aniqlash	-Umumiy qon tahlil -Siydik tahlil -Qon guruh, rezus faktor -RW, OIV, Gepatit B, C -Najas tahlil	- Rejali UTT tahlil

Tug'ruq kompleksi akusherlik va homiladorlik kasalliklari bo'limida homila ichki infeksiyalanish xavfi natijasida fetoplatsentar tizim gemodinamik buzulishlar kuzatilishi yuqori homilador ayollar umumiy ko'ruv, tashqi va ichki akusherlik ko'ruvi, umumiy qon, siydik analizi, qon guruhi, rezus faktor, 3 (.) surtma tahlili, Vasserman reaksiyasi qonda, Nechiporenka sinamasi siydikda bajarildi, shuningdek kompleksi ultratovush skrining tekshiruv usullari, qon bioximiyasi skrining xorion gonadotropin, alfa fetoprotein miqdori, dopplerografiyada homila funksional holat baholashga imkon berdi.

2.2.1. Bakteriologik tekshiruv usullari.

3 (.) surtma tekshiruv usuli – urogenital yo'llar mikroflorasi tarkibida leykositlar soni, epiteliy nisbati, shilliq miqdori, bakteriyalar morfologik ko'rinishi aniqlashga yordam beradi. Tekshiruv jarayoni uchun qin, servikal kanal, uretra ya'ni uch nuqtadan surtma olinadi, so'ngra tahlil qilish maqsadida namuna olingan material buyum oynachaga joylashtiriladi, maxsus bo'yoq bilan bo'yaladi va mikroskop ostida ko'riladi.

Tekshiruv namunasi bo'yash uchun Romanovskiy Gimza sitolik usuli foydalaniladi, ushbu usul 1904- yil Gustav Gimza tomonidan taklif qilingan. Tekshiruv natijasida bakteriyalar binafsha qizil, hujayra sitoplazmasi ko'k, yadrolari esa qizil rangga bo'yaladi.

Qin tozalik darajalari normal ko'rsatkichlari:

2.5-Jadval

I – Daraja:	Qin suyuqlik kislotlik muhit PH= 4.0- 4.5. Dederleyn tayoqchalari va epiteliy hujayralari aniqlanadi.
II- Daraja:	Qin suyuqlik kuchsiz kislotali muhit PH= 5.0 – 5.5. Kokklar va leykositlar kamroq, epiteliy hujayralar aniqlanadi.
III – Daraja	Qin suyuqlik ishqoriy muhit PH= 6.0. Leykositlar, kokklar va boshqa turdagi bakteriyalar aniqlanadi.
IV – Daraja:	Qin muhit kuchsiz ishqorli, kokklar , ichak tayoqchasi, trixomanadalar va boshqa mikrob florasi aniqlanadi.

Qin disbiozi rivojlanishi oqibatida vaginal normal mikroflorasi buzulishlari xavf yuqori homilador ayollar guruhida urogenital trakt yallig'lanish kasalliklarida patogen mikroflora qo'zg'atuvchilari xususiyatlari aniqlash maqsadida o'tqaziladi. Bunda urogenital yo'llar mikroflora tarkibi, miqdori, shuningdek spetsifik infeksiyalar gonokokklar, xlamidiya, trixomanadalar, kandidalar va boshqa patogen florani aniqlashga imkon yaratadi.

2.2.2. Immunologik tekshiruv usullari.

Immunoferment analiz (IFA) – antigenga qarshi antitetolar ishlab chiqargan reaksiyaga asoslangan laborator diagnostik usul hisoblanadi. Antitelalar bu antigen ta'sirida sintez qilingan plazma oqsilli immunoglobulinlarga aytiladi. Ular 5 ta sinfga ajratiladi : IgA, IgG, IgM, IgE, IgD.

Immunoferment analiz keng tarqalgan ELISA (Enzyme linked immunosorbent assay) nomli qattiq asosli geterogen laborator diagnostik usul.

ELISA tekshiruv usuli qo'yilish texnikasi:

1. Tekshiruv material chuqurchali planshetkalarga quyiladi bunda zardobdan antigen adsorbsiyalanishi natijasida antigen antitelo birikmasi vujudga keladi.
2. Antigen antitelo birikmasiga peroksidaza, ishqorli foosfataza, galaktozidaza kabi fermentlar shuningdek komyugatlar qo'shiladi.
3. Tekshiruv jarayoning har bir bosqichi ma'lum haroratda termostatda inkubatsiya qilinadi shundan so'ng bog'lanmagan moddalar planshetkadan yuvilib tashlanadi va qurutiladi.
4. Immunoglobulinlar biriktirilgan fermentni faollashtirish maqsadida uch moddali birikmaga ortofenildiamin, tetrametilbenzidin kabi substraktlar qo'shiladi va yorug'liksiz muhitda inkubatsiya qilinadi.
5. Inkubatsiyadan keyin substratga kislota qo'shiladi, substratning rangi o'zgarishi kuzatilib, reaksiya yakunlanadi.
6. Immunoferment anazil riderlarda ma'lum to'lqin uzunligida filtr bilan o'lchanadi bunda tekshiruv natijasi birikma yuzaga kelmasa hosil bo'lgan substratning rangi o'zgarmaydi.

Hozirgi kunda turli xil infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklar tashxis qo'yish maqsadida keng immunoferment analiz laborator diagnostik usuldan qo'llanilmoqda. Surunkali virusli infeksiyalari ya'ni TORCH infeksiyasi, Gepatit B, C virusi, OIV virusi va boshqalar tashxislash maqsadida foydalaniladi.

Organizmga antigen tushganda unga qarshi gumoral immun tizim ishga tushiriladi, bunda immun javob IgM so'ngra esa bir necha kundan keyin IgG plazmatik hujayralar tomonidan ajratilib chiqadi.

Immunoferment analiz tahlili juda tez amalga oshiriladi, immunoglobulinlar soning ortishi bilan belgilanib, tekshiruv natijasi ijobiylikgi esa surunkali virusli infeksiyon patologiya mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek ushbu diagnostik metod qon tekshiruvida onkologik hujayralarni aniqlash maqsadida qo'shimcha usul sifatida qo'llaniladi.

Qin disbiozining infeksiya qo'zg'atuvchilari qon zardobida aniqlash maqsadida Interleykin-4 – IFA- BEST va Interleykin-10- IFA-BEST reaktivlar to'plamidan iborat qattiq asosali immunoferment analiz tekshiruv usulli qo'llanildi. Turli infeksiyon tabiatli yallig'lanish kasalliklar immunologik jarayonlar interleykin-10 baholash uchun o'rganiladi. Interleykin- 10 yallig'lanishga qarshi sitokinlarga kiradi, bu spetsifik immun reaksiyalar orqali infeksiyon yallig'lanish jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Interleykin-4 B-limfositlar va T-limfositlar proliferatsiyasini kuchaytirishi orqali gumoral va hujayraviiy immunitet boshqarishda qatnashadi. Immunologik, allergik, avtoimmun kasalliklar rivojlanishda interleykin-4 o'rganish ahamiyatli hisoblanadi.

Immunoferment analiz metodi afzalliklari bular:

1. Tekshiruv usuli og'riqsiz va xavfsiz bo'ladi.
2. Tekshiruv materiallar juda kam miqdor olinadi.
3. Tekshiruv natijasi tezkor chiqadi.
4. Tekshiruv natijasi 96% aniqlikda ko'rsatadi.
5. Tekshiruv tahlili past narxda bo'ladi.
6. Tekshiruv usulini avtomatlashtirish mumkin.
7. Tekshiruv konyugatni uzoq muddat saqlash mumkin.
8. Tekshiruv natijasi olishda radioizotoplar qo'llanilmaydi.

2.2.3. Virusologik tekshiruv usullari.

Zanjir polimeraza reaksiyasi (ПЦР ing Polumerase chain reaction PCR) – bu zamonaviy molekulyar metod bo'lib, homila ichki infeksiyasida virus genomi o'rganishda qo'llaniladi. 1983- yil amerikalik olim Keri Myullis ushbu tekshiruv usullini taklif qilgan. TORCH- infeksiyasilarida DNK-tutuvchi viruslar aniqlash maqsadida ishlatiladi. Qin, bachadon, siydik chiqarish kanali ajralmalari va siydik tekshiruv materiallari sifatida olinadi.

Zanjir polimeraza reaksiyasi tekshiruv usuli har biri uch bosqichdan iborat bo'lgan 20-35ta sikli jarayonlar orqali amalga bajarilib, bosqichlari:

1. Denaturatsiya – ikki zanjirli DNK molekularida bog'lar 94-95°C qizdirish orqali uziladi.
2. DNK zanjiri kerakli bo'laklariga praymerlar biriktirish uchun harorat 55-65°C pasaytiriladi.
3. Elongatsiya- yangi DNK komplementar zanjiri 72°C haroratda sintezlanadi.

TORCH infeksiyalar diagnostika qilish uchun zanjir polimeraza reaksiyasi tekshiruv metod foydalanish orqali organizmda infeksiya qo'zg'atuvchining DNKsi mavjudlik aniqlashga imkon yaratadi. Shuningdek usul yordamida patogen tipini ajratib olishga ko'maklashadi, misol birinchi yoki ikkinchi turdagi herpes mansubligini ko'rsatib beradi. TORCH infeksiyasi ushbu usul tufayli barvaqt tashxislash asosida homila rivojlanish nuqsonlari, homila tushish xavfi va boshqa patologik jarayonlar namoyon bo'lishini oldini oladi va kerakli davo muolajalar tayinlanishini taminlaydi. Qin disbiozi rivojlanish oqibatida vaginal mikrofloraning buzulishlar xavf guruhi homilador ayollar mazkur metod tashxislash maqsadida o'tqaziladi.

Zanjir polimeraza reaksiyasi tahlili yordamida surunkali infeksiyalari bular qizilcha, toksoplazmos, herpes va turli virusli infeksiyalar OIV, gepatit B,C,D va genital infeksiyalardan xlamidiya, mikoplazma shuningdek respirator viruslar COVID-19 aniqlashga imkon yaratib beradi.

IIIQP tekshiruv metodi orqali in vito sharoitda DNK matriksi komplementar sintezi DNK- polimeraza fermenti yordamida bajariladi va DNK replikatsiyasi amalaga oshiriladi. DNK-polimeraza thermis aguaticus nomli termofil bakteriyalar tomonidan ishlab chiqariladi, ushbu ferment tufayli DNK replikatsiyasi sikl ko'rinishida kechadi.

Virus genomida DNK replikatsiyasi DNK denaturatsiyasi va yangi DNK zanjir sintezi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. DNK replikatsiyasi siklining ko'p marotaba takrorlanishi natijasida DNK maxsus bo'laklarining nusxalari tez ko'payishiga olib keladi. DNK zanjiri komplementar sintezi uning qisqa ipli bo'laklarining ma'lum qismida bajariladi va DNK bo'lagida boshlang'ich qismi yuzaga keltirish uchun praymer nomli oligonukleotidlar kerak bo'ladi. DNK komplementar ketma – ketliklarida praymerlar maxsus bo'laklarning chap va o'n chegaralarida joylashadi natijada DNK yangi zanjiri ularning o'rta sohasida vujudga keladi. DNK kerakli bo'laklari elektroforez usuli orqali shtrix ko'rinishida baholanadi va infeksiyaning DNK kodi bilan solishtirish jarayonida ular moslik aniqlansa reaksiyasi natijasi musbat sanaladi.

Zanjir polimeraza reaksiyasi yordamida tekshiruv materiallaridan DNK komplementar zanjiri ketma ketlik solishtirish orqali patogen viruslar, bakteriyalar va turli mikroorganizmlar aniqlashga imkon beradi. Ushbu usul aniqlik, sezgirlik, tezkor tashxis qo'yish bilan boshqa tekshiruv usullaridan farqlanadi. Tekshiruv natijasi 90-95% aniqlikni ko'rsatadi.

IIIQP molekulyar metod afzalliklariga quyudagilar kiradi:

1. Tekshiruv usuli zamonaviy : virus genom aniqlashga yordam beradi.
2. Tekshiruv usuli effektiv: virus yashirin shakllar tashxislashda imkon beradi.
3. Tekshiruv usuli sezgirlik: kam tekshiruv materiallarda patogen aniqlaydi.
4. Tekshiruv usuli aniqlik : kasallik patogenga xos genetik struktura o'rganadi.
5. Tekshiruv usuli tezkorlik: natija qisqa muddatda namoyon bo'ladi.

2.2.4. Instrumental tekshiruv usullari.

Ultratovush tekshiruv usuli – yuqori informativ, homila holati dinamik kuzatuv xavfsiz olib boruvchi diagnostik metod hisoblanadi. Ultratovush metod keng tarqalgan diagnostik usul bo'lib, xavfsiz va yuqori ma'lumotli kuzatuv natijalar taqdim etadi. Mazkur usul tibbiyotda 30 -yillardan foydalanish boshlandi.

Ultratovush tekshiruv usuli yuborilgan yuqori chastotali tovush to'lqinlari yordamida tekshiruv natijasining tasvirini aks etadi. Ultratovush to'lqinlari to'qima va organlardan ma'lum tezlikda harakatlanadi va signal sensorlar tominidan ushlanib, elektr impulslariga aylanadi. Hosil bo'lgan tekshiruv natijalari uskunaga qayta uzatiladi, elektron dastur qayta ishlanadi va tasvir monitoringda uch o'lchamli rasm sifatida namoyon bo'ladi

Ultratovush tekshiruv usuli zararsiz bo'lib, olingan natijalar ishonchlik, yuqori sifatli tasvir aks etadi , shuningdek turli organ tizimlar takroriy va keng qamrovli dinamik kuzatish imkoniyat yaratib beradi. Ushbu usul hozirgi kunda tibbiyotda yetakchi o'rinlar egallaydi, homila rivojlanish jarayon baholashda amaliyotda keng qo'llaniladi.

Homiladorlik davrida antenatal parvarishida 10-14 haftasi, 20-24 haftasi va 30-34 haftasi ultratovush tekshiruv usuli amalga oshiriladi. Ushbu usul bajarish uchun maxsus tayyorlash jarayon o'tqazish talab qilinmaydi. Ultratovush diagnostik metod asosida tekshiruvchi qorin old devori tovush o'tqazuvchi gel surtiladi so'ngra ultratovush to'lqinlari urulib elektr impulslarga aylanadi va monitoring eks etadi.

Ultratovush tekshiruv usuli homiladorlikning asoratlari erta tashxislash eng samarali metod hisoblanadi. Tekshiruv natijalari homila rivojlanish parametrlarga muvofiq me'yoriy ko'rsatkichlar orqali taqqoslanadi. Bu usul yordamida homila ichki organlar rivojlanish darajasi, homila hajmi , amniotik suyuqlik sifati va miqdori, fetoplatsentar tizim holat tekshiruvni ta'minlaydi.

.Qin mikrobiotsenozning buzulishlari yuqori xavf homilador ayollar guruhi kompleksli ultratovush tekshiruv tarkibiga homila biofizik profili ko'rsatkichlari

baholash o'z ichiga oladi. Homila biofizik profili parametrlari (A. M. Vintzeleos) homila nafas soni, homila harakati, homila tonusi, amniotik suyuqlik hajmi, yo'ldosh tuzulishi, nestressli test kiradi.

Homila ichki infeksiyasi ta'sirida patologik buzulishlar homila biofizik profili tekshiruv parametrlari quyudagilar iborat :

2.6- Jadval

Biofizik parametrlar	Normal ko'rsatkich	Buzulishlar
Homila nafas harakati	Homila nafas harakati 30sekund davom etadi.	homila nafas harakati yo'qlik.
Tana va qo'l-oyoqlar harakati	3ta alohida harakat mavjud.	2ta past harakat mavjud
Homila tonusi	Tana fleksiyasi yozilishi va qo'l oyoq fleksiyasi tarqalish	Tana sust yozilish va qo'l oyoq fleksiyasiz bo'ladi.
Amniotik suyuqlik hajmi	Minutiga 1sm 2ta perpendikulyar yo'nalishli	
Nestress	PS akseleratsiyasi 15 zarb minutiga davom etadi.	PS akseleratsiyasi yo'q yoki 15 zarb minutiga kam davom etadi.

Qin mikrobiotsenozning buzulishlari tufayli qin disbiozi kuzatilish xavfi yuqori homilador ayollar guruhi tug'ruq kompleksining akusherlik va homiladorlik kasalliklari bo'limida ultratovush tekshiruvi "Sone-Scope-30" (Germaniya), "ALOKA" (Yaponiya), "Interscan" (Germaniya) apparatlari orqali o'tqazildi. "ALOKA" ultratovush skaneri yuqori sifatli zamonaviy takomillashtirilgan tasvirlash texnologiyasi tashkil etadi. Mazkur apparat dinamik to'rt o'lchovli signalni qayta ishlash ta'minlaydi va 188 дБ dinamik diapazonda ishlaydi shuningdek soniyada 926ta ortiq kadrlar aks ettiradi. "Sone- Scope" eng yirik ultratovush apparatini ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi, uskuna kontrastli

tasviri yaxshi rang ifodasida ishlashni ta'minlaydi, ushbu apparat to'liq sensorlar chiziqli, konveksli, vaginal, 4D to'plamlaridan tashkil topgan.

Ultratovush diagnostik metodi ikki xil usullari orqali bajariladi, bular transvaginal va transabdominal kiradi. Transvaginal usul – vaginal devori orqali o'tqaziladi, odatda homiladorlik dastlabki trimestrlarida tekshiriladi. Transabdominal usul qorin tashqi devori orqali amalga oshiriladi, homiladorlik keyinchi trimestrlarida amalga oshiriladi

Homiladorlik birinchi trimestirida ultratovush diagnostikasi quyudagilar aniqlashga yordam beradi:

1. Homiladorlik muddatini aniqlaydi.
2. Homila sonini ko'rsatib beradi.
3. Homila xromosoma anomaliyalar tekshiradi.

Homiladorlik ikkinchi trimestirida ultratovush diagnostikasi quyudagilar aniqlashga yordam beradi:

1. Homila jinsini aniqlaydi.
2. Homila rivojlanish nuqsonlarini ko'rsatadi.
3. Yo'ldosh hajmi va yetilish darajasi tekshiradi.
4. Amniotik suyuqlik miqdorini baholaydi.

Homiladorlik uchunchi trimestirida ultratovush diagnostikasi quyudagilar aniqlashga yordam beradi:

1. Homila oldingi keluvchi qismi ko'rsatadi.
2. Homila vazni aniqlaydi.
3. Homila ichki organlar va yo'ldosh holati baholaydi.
4. Fetoplatsentar tizim gemodinamikasi tekshiradi.
5. Tahminiy tug'ruq sanasi rejalashtiradi.

Dopplerometriya tekshiruv usuli – gemodinamik buzulishlar aniqlashda qo'llaniladigan diagnostik metod hisoblanadi. Homiladorlik davri bachadon, kindik va homila tomirlarida qon oqimining intevsiv tezlik aniqlaydigan ultratovush tekshiruv usuli bo'lib, ushbu metod avstriylik fizik Kristian Doppler nomiga berilgan. Doppler sonografiya natijalari fetoplatsentar tizim qon oqimining holatini baholashga imkon yaratadi va homila rivojlanish holati ko'rsatadi. Homila ichki infeksiya fetoplatsentar tizim gemodinamik buzulishlar aniqlash maqsadida dopplerometriya tekshiruv usuli homiladorlik II va III trimestrlarida qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi.

Mazkur diagnostik metod orqali homila ichki infeksiya fetoplatsentar tizim gemodinamik buzulishlar xavfi yuqori homilador ayollar guruhida homila bachadon yo'ldosh kompleksini qon aylanish holatini o'rganish, gemodinamik buzulishlar tashxislash, fetoplatsentar yetishmovchilik aniqlash, homila rivojlanish nuqsonlari bartaraf etishga qaratilgan.

Dopplerometriya tekshiruv jarayonida homila yo'ldosh bachadon tizim quyidagi qon tomirlarning qon oqimi tezligi ko'rib chiqiladi:

1. O'ng va chap bachadon arteriyasi.
2. Juft kindik arteriyasi va toq kindik venasi.
3. Homila o'rta miya arteriyasi.
4. Homila aortasi.
5. Homila venoz protoklar.

Homila yo'ldosh bachadon kompleksi gemodinamik baholash uchun qon oqimining tezlik bachadon arteriyalar va kindik arteriyalar holati o'rganiladi. Qon oqimining tezlik tekshirish maqsadida pulsatsiya indeks, qarshilik indeks, sistolik – diastolik indeks ko'rsatkichlari taqqoslandi.

Dopplerometriya tekshiruv jarayonida sensorlar kerakli tomirlar hududidan qayd etilgan signallar apparat monitorida aks etadi va ko'rsatkichlar parametrlari o'ziga xos qiymatlari maxsus dastur tomonidan qayta ishlanadi. Qarshilik va pulsatsiya

indeksi kabi maxsus parametrlari , tomirdagi sistolik va diastolik qon oqimining tezligiga asoslangan tekshiruv dasturi tomonidan hisoblanadi. Homila yo'ldosh bachadon kompleksi qon tomirlari qon oqimining harakati tezklik o'lchanadi bunda qon oqimining tezligi apparat monitorida egri chiziq ko'rinishida aks etiladi va tekshiruv normal ko'rsatkichlar nisbati taqqoslanadi.

Surunkali infeksiyon qo'zg'atuvchilar tufayli fetoplatsentar tizim gemodinamik buzulishlar xavf yuqori homilador ayollar guruhi homila yo'ldosh bachadon kompleks qon aylanish baholash maqsadida " Hitachi – EUB " 515 A (Yaponiya) apparati 3.5 МГц datchikli, dopplerning 100 Гц chastota pulsli to'lqinlar bilan ta'minlangan. Mazkur apparat tekshiruv ko'rsatkichlar aniqlik, sifatli tasvirni vizualizatsiya qilish tufayli foydalanish ko'p qulaylik yaratadi.

Dopplerometriya tekshiruv usuli fetoplatsentar tizim qon aylanish baholashda asosiy ko'rsatkichlar :

1. Qarshilik indeks (RI , Pourcelot L 1974y) (C-D) / C
2. Pulsatsiya indeks (PI , Gosling R 1975y) (C – D) / O'rtacha tezlik
3. Sistolik- diastolik indeks (SDR , Stuart B 1980y) C/ D

C – Qon oqimining maksimal sistolik tezlik.

D– Qon oqimining maksimal diastolik tezlik.

Infeksiyon jarayon asoratlaridan fetoplatsentar tizim gemodinamik buzulishlar xavf yuqori homilador ayollar guruhi homila yo'ldosh bachadon kompleks qon aylanish baholash quyudagi shkalalardan qo'llanilgan : (Strijakova 1975y)

- I. I A daraja : Bachadon arteriyalarda qon oqimining buzulishi.
- II. I B daraja: Kindik arteriyalarda qon oqimining buzulishi.
- III. II. daraja: Bachadon va kindik arteriyalarda qon oqimining buzulishi.
- IV. III daraja: Homila qon oqimining kritik holatda buzulishi.

2.3. Tekshiruv ma'lumotlarini statistik qayta ishlash.

Sonli materiallar guruhlash, tahlil qilish va statistik qayta ishlash Microsoft Office Excel -2019 dasturi bo'yicha kompyuter yordamida umumiy qabul qilingan variatsion statistik usullari yordamida amalga oshirildi.

III-BOB.

XUSUSIY TEKSHIRISH NATIJALARI.

3.1. Retrospektiv tahlil natijalari.

Qin mikrobiotsenozning buzulishlaridan qin disbiozi rivojlanish yuqori xavf guruh homilador ayollar 30ta kasallik tarixi o'rganildi.


Tekshirilayotgan homilador ayollar tahlil qilganda.

Ulardan 20 yoshgacha bo'lgan homilador ayollar soni 2ta (5%), 21-25 yoshgacha 11ta (27.5%), 26-30 yoshgacha 14ta (35%), 31-35 yoshgacha 11ta (27.5%) va 35 yoshdan katta bo'lgan homilador ayollar 2ta (5%) tashkil etardi.

Pariteti tahlil qilganda.

Bu ayollar ichida ayollar birinchi tug'malar soni 9ta (22,5%) qayta tug'malar soni 21ta (77,5%) tashkil etardi.

Pariteti bo'yicha:



Ginekologik anamnez tahlil qilganda.

Ushbu homilador ayollar ichida 27 ta (67.5%) menarxe 12-14 yoshda, 9ta (22.5%) 15-16 yoshda, 4ta 18 (10 %) yoshda kuzatilgan. Ulardan 28ta (70%) erta jinsiy hayot va 12ta (30%) kech jinsiy hayot boshlagani, shuningdek 26ta (65%) muntazam jinsiy hayot 14ta (35%) nomuntazam jinsiy hayot kechirish aniqlangan. Genital yallig'lanish kasalliklardan anamnezidan quyudagilar kuzatilgan:

1. Kolpit – 25 ta (62.5%)
2. Adneksit – 5ta (12.5%)
3. Endometrit – 10ta (25%)

Asoratli akusherlik anamnezi tahlil qilganda.


Homilador ayollarda vaginal mikroflorasi buzulishlar kuzatilishi tufayli qin disbiozi yuzaga kelishda homiladorlik muddati ahamiyatli sanaladi. Homiladorli I trimestri infeksiyalanish xavfi 30%, homiladorlik II trimestr 35% va homiladorlik III trimestr bu xavf 35 % tashkil qiladi. Homiladorlik davri asoratli kechish bo'yicha I homiladorlik tugqan ayollar 9 (22.5%), II homiladorlik kuzatilgan ayollar 15ta (37.5%) III homiladorlik esa ayollar 11ta (27.5%), IV – V homiladorlik 5ta (12.5%) tashkil etgan.

- 1) 14ta (35%) homila erta muddat tushish.
- 2) 13ta (32.5%) homila kech muddat tushish.
- 3) 2ta (5%) homila rivojlanish nuqsoni.
- 4) 11ta (27.5%) homila muddatdan oldin tug'ulish.

Qin mikrobiotsenozning buzulishlaridan qin disbiozi olib keluvchi sabab TORCH infeksiyasi va boshqalar bo'lib, IFA va ПЛП tahlil bo'yicha:

1. Sitomegalovirus 10 ta (25 %).
2. Gerpes 11ta (27.5 %).
3. Toksoplazmoz 2ta (5%).
4. Kandida 9ta (22.5 %)
5. Xlamidiya 2ta (5%).
6. Mikoplazma 5ta (12.5%)
7. Ureaplazma 3ta (7.5 %)

Aniqlangan TORCH infeksiyasi va boshqa infeksiyalar:



Sitomegalovirus Gerpes Toksoplazmoz Kandida Xlamidiya Mikoplazma Ureaplazma

Gramm bo'yicha qin, servikal kanal, uretra ya'ni uch nuqtadan olingan surtma tahlili qinning tozalik darajasi past bo'lgan ko'rsatkichda qin mikroflorasi buzulishu xavfi yuqori bo'ladi.

